

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE'L SO'Z TURKUMLARINI TAQQOSLASH. INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARNING O'ZBEK TILIDAGI MUQOBILI

Tojiyeva Zarina

Buxoro Davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyot ta'lim yo'nalishi 1-XTA-24 talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisdagi , morfologiya so'z turkumining bir qismi bo'lgan fe'l so'z turkumini ingliz tilidagi o'xshash tomonlari , farqlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z aytib o'tilgan . Bundan tashqari , o'zbek tilimizdagi iboralarning ingliz tilidagi variant va ular qanday farq qilishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ibora , zamon , morfologiya , aspect , proverb , molashish , modal fe'llar

Fe'l — harakat bildiruvchi so'zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so'z. Grammatikada "harakat" so'zi keng tushunchali bo'lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, mas: yugurmoq, sakramoq, yig'lamoq, uxlamok, o'ylamoq, sevmok, tinchimoq, qurimoq.

O'zbek tilidagi fel va ingliz tilidagi fel o'rtasidagi ba'zi o'xshash jihatlarni ko'rib chiqamiz. Bu ikki tilning fel tizimi o'ziga xos bo'lsa-da, ba'zi umumiy jihatlari mavjud:

1. Ish-harakatni ifodalash:

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham fel asosan ish-harakatni, holatni yoki o'zgarishni ifodalaydi. Masalan:

O'zbekcha: "Men kitob o'qiyman."

Inglizcha: "I read a book."

2. Zamon va vaziyat (aspect):

Ikkala tilda ham fel yordamida zamon (time) va vaziyat (aspect) ifodalanadi. Ingliz tilida bu yordamchi fe'llar orqali amalga oshiriladi (masalan, "am", "is", "are", "have", "had"), o'zbek tilida esa qo'shimchalar orqali. Misol uchun :

O'zbekcha: "Men kitob o'qiyapman." (hozirgi zamon)

Inglizcha: "I am reading a book."

3. Modal fe'l (modal verbs):

Ingliz tilida modal fe'llar (can, must, may, should va boshqalar) ishlatiladi, o'zbek tilida esa shu ma'noni beruvchi modallar mavjud (masalan, "kerak", "mumkin", "lozim"). Masalan :

O'zbekcha: "U kelishi kerak."

Inglizcha: "He must come."

4. Fe'lining shaxsga qarab o'zgarishi:

Ingliz tilida felning shaxsga qarab o'zgarishi (person agreement) mavjud, masalan, "I run" va "He runs". O'zbek tilida ham fe'ning shaxsga qarab o'zgarishi mavjud, lekin bu o'zgarish ko'proq qo'shimchalar orqali amalga oshadi. Misol tariqasida quyidagi gaplarni keltirish mumkin:

O'zbekcha: "Men o'qiyapman" (1-shaxs), "U o'qiyapti" (3-shaxs)

Inglizcha: "I am reading" (1st person), "He is reading" (3rd person)

5. Infinitiv yoki fe'llarning noaniq shakli:

Ingliz tilida felning infinitiv shakli "to + verb" tarzida ifodalanadi, o'zbek tilida esa "moq" qo'shimchasi orqali ifodalanadi.

O'zbekcha: "Men kitob o'qimoqchiman."

Inglizcha: "I want to read a book."

O'xshash jihatlari bor bo'lgani kabi farqli jihatlari ham yo'q emas, albatta.

Bularga:

•Fe'ning shaxs va son bo'yicha qo'llanishi:

Ingliz tili: Fe'ning shaxs va son bo'yicha o'zgarishi faqat hozirgi zamon va o'tgan zamon uchun cheklangan. Masalan, "I work" (men ishlayman), "She works" (u ishlaydi) – fe'l "work" faqat "s" qo'shilishi bilan shaxsga moslashadi.

O'zbek tili: O'zbek tilida fe'l ko'proq shaxs va sonni ifodalovchi qo'shimchalarga ega. Masalan, "Men ishlayman" (birinchi shaxs, birlik), "Ular ishlaydilar" (uchinchi shaxs, ko'plik).

•Zamonlar va ko'rinishlar:

Ingliz tili: Ingliz tilida zamonlar, xususan, davomli (progressive), mukammal (perfect) va mukammal davomli (perfect progressive) zamonlar ko'p ishlatiladi. Masalan, "I am working" (davomli zamon), "I have worked" (mukammal zamon).

O'zbek tili: O'zbek tilida fe'ning zamonlari asosan hozirgi, o'tgan va kelajak zamoniga qarab farqlanadi.

•Fe'ning shakllanishi:

Ingliz tili: Ingliz tilida fe'ning shakllanishi ko'pincha qo'shimchalar yordamida (ing, ed, s, va boshqalar) amalga oshiriladi.

O'zbek tili: O'zbek tilida fe'ning shakllanishi asosan fe'lga qo'shimcha qo'shilishi orqali amalga oshiriladi. Fe'lga zamon, ko'plik, shaxs va holat qo'shimchalari kiritiladi.

Umuman olganda "Fe'l" so'z turkumi har bitta tilni asosi desak xato bo'lmaydi. Bilamizki, odatiy so'zlashuv nutqimizdagi so'zlarning aksariyati fe'l hisoblanadi.

Endi, iboralar, maqollar va ibratli so'zlarning ingliz tilidagi muqobillariga nazar tahlaydigan bo'lsak, bular ham bir biriga juda o'xshaydi. Misol tariqaida ingliz tilidagi mashhur iboralaridan biri "Easy come, easy go". Bu maqol o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, ko'p qo'llaniladi. O'zbek tilidagi ma'nosi "Oson kelgan narsa, oson ketadi" Bu hikmatli so'zni hamma narsaga oson erishishni xohlaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari "All good things must come to an end" maqoli

ham o'zbek tilida ko'p qo'llaniladigan hikmatli so'z hisoblanadi. O'zbekchadagi ma'nosi " Barcha yaxshi narsalar oxirida keladi" degan ma'noda qo'llaniladi. Quyida ingliz tilidai maqollarning o'zbek tilidagi muqobillari keltirib o'tilgan:

- Don't count your chickens before they hatch – Tovuqlar chiqmay turib, tuxum sanama
- A bird in the hand is worth two in the bush – Qo'ldagi qush, butun o'rmonlardan yaxshi
- Actions speak louder than words – So'zdan ish ko'proq narsani aytadi
- Better late than never – Hech bo'lmaganda kech bo'lsa ham bajar
- The early bird catches the worm – Erta turib ishlagan, ko'proq foyda ko'radi
- You can't judge a book by its cover – Kitobni tashqi ko'rinishidan baholama.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , har bir tilning o'ziga xos jihatlari mavjud. Ba'zi bir jihatlari boshqa tillar bilan o'xshashi mumkin. Jumladan , ingliz tili bilan o'zbek tilining ham o'ziga xos o'xshashliklari va farqli jihatlari borligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek , iboralar ikki tilni ham o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- “Practical English Usage” by Michael Swan
- “O'zbek tilida ish yuritish” Muhammad Aliyev
- Internet ma'lumotlari